QASHQADARYO VILOYATI
NISHON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

181100 Nishontumani, Yangi Nishon shahri O'zbekistonko'chasi 20-uy Faks: (+998) 755-121-100 t.nishon@exat.uz

2022 - yil 20 - sentabr 767-4-65-Q/22 Nishon tuman hokimligi

Nishon tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining *(O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2013 y., 15-son, 197-modda)* 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” *(O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2016 y., 3-son, 23-modda)* talablariga asosan Nishon tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining *(O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda)* 6, 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1.Nishon tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili 1-ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2.Nishon tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i Sh.Iskandarov, tuman ichki

ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i F.Mamatov va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori N.Qodirovlarga tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3.Mazkur qaror “Nishon tongi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining “nishonpress.uz” rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4.Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari U.Nabiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **M.K.Xayitmuradov**

Nishon tuman hokimining
2022 yil 20 sentabrdagi
767-4-65-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1.	4R89 “Qarshi -Talimarjon” avtomobil yo‘lining 23-kilometrining har ikkala tomoniga *(mol bozori ro’parasiga)*	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”
2.	Tuman markazidagi O’zbekiston ko’chasida joylashgan Agrobank ATB Nishon tuman filiali ro’parasidagi yo’lning bir tomoniga	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”
3.	Tuman markazidagi Sokinlik ko’chasida joylashgan dehqon bozori ro’parasidagi yo’lning har ikkala tomoniga	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”
4.	Nuriston shaharchasidagi G-40 avtomobil yo’lida joylashgan dehqon bozori ro’parasidagi yo’lning har ikkala tomoniga	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”